ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

INKLYUZIV TA’LIMDA DESTRUKTIV TA’SIRLARNING PROFILAKTIKASI

To‘rayeva Sharofat Boboyor qizi
+998937663668
https://doi.org/10.5281/zenodo.23086840

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim muhitida o‘quvchilarning psixoemotsional holatini qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy yondashuvlari yoritilgan. Unda nogironligi bo‘lgan bolalar, turli ehtiyojga ega o‘quvchilar va ularning tengdoshlarini psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlashning samarali metodlari tahlil qilingan. Shuningdek, emotsional farovonlikni ta’minlashda pedagoglar, psixologlar va ota-onalar hamkorligining ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Zamonaviy raqamli texnologiyalar, art-terapiya, kognitiv-behavioral yondashuvlar hamda individual psixologik yordam ko‘rsatishning innovatsion usullari misol tariqasida keltirilgan.
Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, psixoemotsional holat, qo‘llab-quvvatlash, art-terapiya, raqamli texnologiyalar, maxsus ehtiyoj, o‘quvchi farovonligi, zamonaviy yondashuvlar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные подходы к поддержке психоэмоционального состояния учащихся в инклюзивной образовательной среде. Анализируются эффективные методы психологической помощи детям с особыми образовательными потребностями и их сверстникам. Подчеркивается важность сотрудничества педагогов, психологов и родителей в обеспечении эмоционального благополучия учащихся. В качестве примеров приводятся арт-терапия, когнитивно-поведенческие методы, цифровые технологии и инновационные формы индивидуальной психологической поддержки.
Ключевые слова: инклюзивное образование, психоэмоциональное состояние, поддержка, арт-терапия, цифровые технологии, специальные образовательные потребности, благополучие учащихся, современные подходы.

Annotation: This article explores modern approaches to supporting the psycho-emotional well-being of students in an inclusive educational environment. It analyzes effective psychological support methods for children with special educational needs and their peers. The study emphasizes the importance of collaboration between teachers, psychologists, and parents in promoting emotional well-being. Examples of innovative strategies such as art therapy, cognitive-behavioral approaches, digital technologies, and individualized psychological assistance are highlighted.
Keywords: inclusive education, psycho-emotional well-being, support, art therapy, digital technologies, special educational needs, student well-being, modern approaches.

KIRISH. Zamonaviy ta’lim tizimida inklyuzivlik – har bir o‘quvchining individual ehtiyojlari, imkoniyatlari va rivojlanish sharoitlarini inobatga olgan holda sifatli ta’lim olishini ta’minlashga qaratilgan yondashuvdir. Inklyuziv ta’lim jarayonida o‘quvchilarning psixoemotsional holati ularning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi.

Shuning uchun psixologik qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy va samarali usullaridan foydalanish ta’lim sifatini oshirishning zaruriy omillaridan biri hisoblanadi.

Inklyuziv ta’lim muhitida psixoemotsional holatning ahamiyati kattadir. Inklyuziv guruhlarda o‘quvchilar psixologik jihatdan turlicha xususiyatlarga ega bo‘ladilar. Nogironligi bo‘lgan bolalar, juda uyatchan, emotsional sezgir yoki ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklarga ega o‘quvchilar alohida yondashuvni talab etadi.

Ularning psixoemotsional barqarorligi quyidagi omillarga bevosita ta’sir qiladi:

- o‘quv motivatsiyasi va o‘quv faoliyati samaradorligi;
- tengdoshlari bilan o‘zaro munosabati;
- o‘ziga bo‘lgan ishonch va o‘zini anglash;
- stressga bardoshlilik va moslashuv darajasi;
- ijtimoiy ko‘nikmalar shakllanishi.

Shu bois inklyuziv ta’lim muhitida har bir o‘quvchining emotsional farovonligini ta’minlash ustuvor vazifadir. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, inkluziv ta’lim barcha bolalar, shu jumladan, nogironligi yoki maxsus ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun ham umumiy sinflarda bilim olish imkonini beradigan tizimdir. Uning asosiy maqsadi:

- barcha bolalar uchun teng imkoniyat yaratish;
- shaxsiy xususiyatlarni inobatga olib, har bir bola uchun individual yondashuvni qo‘llash;
- o‘quvchilarda ijtimoiy moslashuv va jamiyatga integratsiyalashuv ko‘nikmalarini shakllantirish;
- bag‘rikeng va insonparvar ta’lim muhitini yaratish.

Psixologlar inklyuziv ta’limga muhtoj bolalar bilan ishlashda aniq bosqichlarga asoslangan yondashuvni qo‘llaydilar. Har bir bosqich chuqur diagnostika, individual yondashuv va tizimli qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi. Quyida har bir bosqich bilan batafsil tanishib chiqamiz.

1. Diagnostik bosqich. Bu bosqichda bola shaxsiyatining individual xususiyatlari, intellektual darajasi, emotsional xolati va ijtimoiy moslashuv imkoniyatlari baholanadi. Bunda asosiy maqsad bolaga qanday yordam kerakligini aniqlashdan iborat. Psixologlar bolaning kognitiv, emotsional va kommunikativ rivojlanish darajasini baholaydilar. Intellektual testlardan IQ darajasini aniqlash uchun qo‘llaniladi. Hissiy-holati va xulq-atvorni baholash uchun "Lusher testi", "Rosshax testi", "Tematik Apperseptiv Test (TAT)"lardan foydalaniladi. Kommunikativ ko‘nikmalarni tekshirish uchun esa savolnomalar va kuzatuv metodlari orqali bolaning odamlar bilan muloqotga kirishishi o‘rganiladi. Kuzatuv (observatsiya) metodi yordamida bola sinfda, o‘yin maydonchasida, oilaviy muhitda qanday o‘zini tutishi tahlil qilinadi, sinfda faol yoki passivligi tekshiriladi, qanday hissiy reaksiya bildirishi kuzatiladi (muhitga qanday moslashishi), o‘qituvchi va tengdoshlar bilan qanday muloqot qilishi baholanadi. Ota-onalar va o‘qituvchilar bilan suhbat orqali bolaning oilaviy sharoiti, o‘tmishdagi stress omillari va ta’lim tarixi haqida ma’lumot olinadi. Bu suhbat natijasida bolaning individual ehtiyojlari aniqlanadi, oldingi o‘qitish tajribasi va muvaffaqiyatsizlik sabablari tushuniladi, ota-onaning bolaning rivojlanishiga qanday ta’sir qilayotgani tahlil qilinadi.

2. Individual reja tuzish bosqichi. Bu bosqichda bola uchun maxsus moslashtirilgan ta’lim va psixologik yordam dasturi ishlab chiqiladi. Individual rivojlanish rejasi (IRJ) ishlab chiqish bola imkoniyatlariga qarab quyidagilar rejalashtiriladi: - o‘quv jarayoniga moslashtirilgan yondashuvlar; -

psixologik va pedagogik yordam shakllari; - emotsional qo‘llab-quvvatlash usullari; Bundan tashqari moslashtirilgan metodika tanlash, masalan, korreksiya mashg‘ulotlari, differensial yondashuv va multisensor metodikalar yordamida har bir bolaning o‘ziga xos ehtiyojlariga mos o‘quv rejasi tuziladi, turli hissiyotlarni jalb qilish orqali ta’lim beriladi. Psixoemotsional holatni qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy yondashuvlarida quydagilarni ko‘rib chiqamiz :

1. Art-terapiya va kreativ metodlar

Art-terapiya turli shakllarda qo‘llanadi: rasm chizish, ranglar bilan ishlash, loy terapiyasi, musiqiy terapiya va qo‘g‘irchoq terapiyasi. Bunday yondashuvlar bolaning ichki hissiyotlarini ifoda etishga yordam beradi, stressni kamaytiradi va o‘zini erkin his qilishiga ko‘maklashadi. Ayniqsa nutqida yoki ijtimoiy muloqotida qiyinchiliklar bo‘lgan o‘quvchilar uchun juda samarali.

2. Kognitiv-behavioral (KBT) yondashuvlar

KBT usullari o‘quvchilarning salbiy fikr va emotsiyalarini aniqlash, ularni nazorat qilish, muqobil ijobiy fikrlashni shakllantirishga yordam beradi. Bu yondashuv:

- tashvishli, asabiy yoki qo‘rqoq o‘quvchilar;
- diqqat yetishmovchiligi bo‘lgan bolalar;
- konfliktda tez-tez ishtirok etadigan o‘quvchilar uchun foydalidir.

3. Raqamli texnologiyalar orqali psixologik qo‘llab-quvvatlash

Hozirda psixologik ilovalar, o‘yin-terapiya dasturlari, emotsional regulatsiyani o‘rgatuvchi animatsiyalar inklyuziv ta’lim jarayoniga faol kirib kelmoqda. Masalan:

emotsiyalarni tanish va ifodalashga o‘rgatuvchi interaktiv ilovalar;

muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi raqamli o‘yinlar;

sensor xonalar (sensory room) uchun maxsus qurilmalar.

Bu texnologiyalar o‘quvchining mustaqil ravishda emotsiyalarini boshqarishni o‘rganishiga ko‘mak beradi.

4. Ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL – Social Emotional Learning)

Dunyoda keng qo‘llanayotgan SEL modeli o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan:

- o‘z his-tuyg‘ularini tanish va boshqarish;
- empatiya;
- mas’uliyatli qaror qabul qilish;
- ijtimoiy muloqot;
- muammolarni tinch yo‘l bilan hal qilish.

SEL dasturlari inklyuziv sinflarda jamoaviy faollik va o‘zaro qo‘llab-quvvatlashni kuchaytiradi.

5. Individual psixologik konsultatsiya va qo‘llab-quvvatlovchi suhbatlar

Psixologning muntazam kuzatuvi, individual suhbatlar, ota-onalar bilan hamkorlik bolaning psixologik farovonligini oshiradi. Har bir o‘quvchining ehtiyojiga qarab reja tuzish, moslashtirilgan psixokorreksion mashg‘ulotlar o‘tkazish juda muhim.

XULOSA. Inklyuziv ta’lim tizimida umumta’lim fanlari orqali destruktiv ta’sirlarning oldini olish zamonaviy ta’lim oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Mazkur tadqiqot inklyuziv ta’lim muhitida o‘quvchilarning psixologik xavfsizligini ta’minlash, ijtimoiy moslashuvini kuchaytirish

hamda salbiy xulq-atvor shakllanishining profilaktikasini amalga oshirishda umumta'lim fanlarining imkoniyatlarini ochib berdi. Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, destruktiv ta'sirlar profilaktikasi fanlar mazmuniga integratsiyalashgan holda olib borilganda, ayniqsa hamkorlikka asoslangan, shaxsga yo'naltirilgan va differensial yondashuvlar qo'llanilganda yuqori samaradorlikka erishiladi. Inklyuziv sinflarda bu jarayon o'quvchilarda empatiya, tolerantlik, o'zini boshqarish va ijtimoiy mas'uliyat kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari inklyuziv ta'lim jarayonida umumta'lim fanlari mazmunini destruktiv ta'sirlardan himoyalovchi pedagogik mexanizmlar bilan boyitish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish hamda psixologik-pedagogik hamkorlikni yo'lga qo'yishni taqozo etadi. Umuman olganda, umumta'lim fanlari asosida destruktiv ta'sirlar profilaktikasini amalga oshirish inklyuziv ta'limning barqaror rivojlanishi va har bir o'quvchi uchun xavfsiz ta'lim muhitini yaratishda muhim omil hisoblanadi.Inklyuziv ta'lim muhitida o'quvchilarning psixoemotsional holatini qo'llab-quvvatlash zamonaviy ta'limning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Art-terapiya, kognitiv-behavioral metodlar, raqamli texnologiyalar, SEL modeli va individual psixologik yordam kabi yondashuvlar o'quvchilarning emotsional barqarorligini mustahkamlashda yuqori samara beradi. Inklyuziv muhitda har bir o'quvchining o'zini qadrlangan, tushunilgan va qo'llab-quvvatlangan his qilishi ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ismoilova N. (2020). Inklyuziv ta'limning zamonaviy tendensiyalari. Toshkent: Fan nashriyoti. – 45-50-betlar.
2. Rahimova G. (2019). Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda psixologik yondashuv. Samarqand: Ma'rifat. – 78-82-betlar.
3. Nazarova D. (2021). Inklyuziv ta'lim tizimida psixologning roli. Buxoro: Ilmiy izlanishlar markazi. – 105-110-betlar.
4. Karimov U. (2022). Psixologik xizmatlarning ta'lim tizimidagi o'rni. Toshkent: Ilm nashriyoti.
5. Qodirova L. (2023). O'zbekistonda inklyuziv ta'lim: rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari. Toshkent: Yangi asr nashriyoti.
6. Komilov S. (2022). Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
7. Tursunov D. (2020). Psixologik metodlar va ularning ta'limga ta'siri. Namangan: Pedagogika va psixologiya instituti.
8. Yusupov B. (2020). O'quvchilar psixologiyasini o'rganishning zamonaviy usullari. Farg'ona: Pedagog nashriyoti.